



**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagи
“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 373-son buyrug‘i va
nizomning mazmun mohiyati**




Ushbu Nizom talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifalaridan qatiy nazar, filialda faoliyat olib borayotgan barcha xodimlariga nisbatan qo'llaniladi.

Filialga ishga kiruvchi har qanday shaxs mazkur Nizom bilan imzo qo'ygan xolda tanishishi va unga rioya qilishi shart.

Nepotizm - o'zining yaqin qarindoshlari g'ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, filial manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

Urug'-aymoqchilik - xodimning umumiy avlodga ega bo'lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan - sub'ektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo'lish shaklidagi shaxsiy manfaatini namoyon etilishi;

Manfaatlar to'qnashuvi – o'z manfaatini lavozim (ish) manfaatidan ustun qo'yish, boshliqni yaqin qarindoshlari bilan faoliyat yuritishi. Shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik tashkilot xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;



Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha:

Filial xodimlari ishga qabul qilinganda, lavozimini o‘zgartirganda, doimiy tarzda har yillik deklaratsiyalash doirasida va xuddi shunday holatlar vaziyatlar yuzaga kelganda, manfaatlar to‘qnashuviga olib keluvchi yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘zlarining shaxsiy manfaatlari to‘g‘risidagi ma’lumotni oshkor qilishga majburdirlar.

Xizmat(biznes) mehmondo‘stligi belgilari hamda sovg‘alarni qabul qilish va berishni tartibga solish bo‘yicha:

Filial xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish munosabati bilan har qanday **sovg‘alarni** yoki xizmat mehmondo‘stligi belgilarini, rag‘batlantirish vositalarini, shu jumladan kredit shaklida, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar, naqd pulsiz yoki naqd pul mablag‘lari yoxud ularning ekvivalentlari, qimmatli qog‘ozlar, kriptovalyutalari, boshqa moddiy qimmatliklar yoki jismoniy va yuridik shaxslardan xizmatlar qabul qilishi taqiqlanadi.

Rasmiy **delegatsiyalar** tarkibida, shu jumladan xorijiy safarlardagi rasmiy tadbirlarda filial xodimlari tomonidan olingan har qanday sovg‘alar summasi va shaklidan qatiy nazar filialning egaligiga o‘tkaziladi.

Filial xodimlariga (shu jumladan, professor-o‘qituvchilar, kafedralar va dekanatlar xodimlariga) shaxsiy manfaatni ko‘zlagan holda ayrim abiturientlar (talabalar), boshqa xodimlar va (yoki) jismoniy va yuridik shaxslarga imtiyozlar berish maqsadida har qanday **sovg‘alarni talab qilish** va (yoki) qabul qilish taqiqlanadi.

Filial xodimlariga (shu jumladan, professor-o‘qituvchilar, kafedralar va dekanatlar xodimlariga) talabalar (o‘quvchilar), ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari, jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday ko‘rinishdagi sovg‘alarni talab qilish va(yoki) qabul qilish **taqiqlanadi**.

Filial xodimlariga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayramlar (tug‘ilgan kun, bolaning tug‘ilishi, Vatan ximoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni)da berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan sovg‘alar xodimning shaxsi bilan bog‘liq sovg‘alar deb tan olinadi.

Shunday sovg‘alar berishda quyidagi umumiylar shartlarga rioya qilinishi zarur:
sovg‘alar ustunlikka ega bo‘lish, qandaydir xarakat (xarakatsizlik)ni amalga oshirish uchun rag‘bat olish maqsadida taqdim etilmasligi lozim;

sovg‘alar filialning kamida uchta xodimi ishtirokida topshirilishi kerak;

sovg‘ani berish tabrik so‘zi (unda sovg‘ani berish sababi aniq ifoda etiladi) bilan birga bo‘lishi kerak;

sovg‘aning **umumiylar qiymati** (barcha soliqlar va yig‘imlarni hisobga olgan holda) **bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan ko‘p bo‘lmashligi lozim;**

filialning bir xodimi boshqa xodimga sovg‘a uchun qilgan xarajati har bir holatda **bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ko‘p bo‘lmashligi lozim.**

Shubha-gumonlarni keltirib chiqarmaslik maqsadida filial xodimlari har qanday bayramlar va sabablar munosabati bilan boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlaridan, xamkorlar va kontragentlardan, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan mazkur Nizomda keltirib o‘tilgan (sovg‘alarni qabul qilish va berish hamda xizmat mehmono‘stligi belgilari) shartlardan tashqari sovg‘alar va boshqa moddiy qimmatliklarni olish taqiqilanadi.

Xalqaro **konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa ishbilarmonlik (xizmat) uchrashuvlarida filial nomidan sovg‘alar berish** O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga muvofiq filial rahbarining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Sovg‘ani berish (qabul qilish) qonuniyligi bo‘yicha shubha-gumonlar kelib chiqqan taqdirda, filial xodimi, filialdagi Komplaiens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bilan maslahat qilishi zarur.



Kadrlar bilan ishlash jarayonini tartibga solish bo'yicha:

Filialdagи kadrlar masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladigan xodimlar tomonidan xizmat lavozimida ko'tarishda, ishga qabul qilishda, kadrlar zaxirasiga kiritishda va x.k.larda nomzodlar (xodimlar)ga asoslanmagan imtiyozlar (agar ushbu afzalliliklar pora olish natijasida yoki manfaatlar to'qnashuvi oqibatida amalga oshirilsa) taqdim qilish taqiqilanadi;

Xayriya va homiylik yordamlarini qabul qilishda shaffof va samarali jarayonni ta'minlash bo'yicha:

Filial O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan hollarda xayriya va homiylik yordamlarini qabul qilishlari mumkin.

Filial xayriya yoki homiylik yordamini qabul qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvining har qanday ko'rinishlarini oldini olishi, qonun hujjatlarida va(yoki) shartnomada belgilangan maqsadlar uchun mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlash bo'yicha barcha choralarни ko'rishi, shuningdek, internet tarmog'ida o'zining **rasmiy veb-saytida xayriya va homiylik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi**.

Xayriya yoki homiylik yordami yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan muassasalariga ko'rsatilishi mumkin. Alovida jismoniy shaxs (filial xodimi)ga, tarkibiy bo'linma (kafedra)ga va h.k.larga xayriya (homiylik) yordamini ko'rsatish taqiqilanadi.

Filial tomonidan olinadigan xayriya (homiylik) **yordami xufyona mukofot** tarzida bo'lmashligi va xayr-ehson qiluvchi (homiy)ning yaqin qarindoshlari, shuningdek boshqa shaxslar (ularga nisbatan xayr-ehson qiluvchi (homiy)ning shaxsiy manfaatdorligi bo'lganlar)ning foydasini ko'zlab qaror qabul qilinishiga ta'sir o'tkazmasligi lozim.

Filial tomonidan xayriya (homiylit) yordamni qabul qilish jarayonida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

xayriya/homiylit yordamini olish va foydalanish maqsadlari, yordam turlari, pul ko‘rinishidagi yordam summasi, kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish bo‘yicha xayriya qiluvchi (homiylit) oldida hisobot berish usuli ko‘rsatilgan xayriya qiluvchi (**homiylit**) bilan majburiy shartnomalar tuzish;

bunday turdaggi shartnomalarga antikorrupsion shartlarni kiritish;

filialning internet tarmog‘idagi rasmiy **veb-saytida** qabul qilib olingan xayriya (homiylit) yordami to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish.

Korrupsion xarakatlar to‘g‘risida xabar berish

filialning Komplaiens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi telegramm bot orqali;
[@uzmujf_antikor_bot](https://t.me/uzmujf_antikor_bot)

Filial xodimlari tomonidan mavjud aloqa kanallari orqali korruption faktlar to‘g‘risida ishonchli xabar berilganda, agar ushbu ma’lumot tasdiqlansa, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga va filialning ichki hujjalariiga muvofiq rag‘batlantirilishi mumkin.





Filialda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilinishi shart:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; o‘z xizmat vazifalarini bajarishda **davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatdorligidan ustun** qo‘yishi; oshkorlik, vijdonlilik va xolislik asosida qarorlar qabul qilinishi; manfaatlar to‘qnashuviga qarshi profilaktik choralarning ustuvorligi;

manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ko‘rib chiqish va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilishi;

manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko‘rib chiqish, baholash va hal qilishga xolis yondashuvi;

ushbu Nizomda belgilangan tartibda xodimlar tomonidan taqdim etilgan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning **maxfiyligini ta’minlashi**;

agar xodim biron-bir qaror qilishdan avval yoki o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tegishli tartibda xabar bergan hamda filial manfaatlari foydasiga o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo‘lsa, uni haqiqiy yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi sababli **ishdan bo‘shatilishiga yo‘l qo‘yilmasligi**.



Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun filial xodimlari:


ushbu Nizomning talablariga rioya qilishi;
faqat filial manfaatlarini ko‘zlashi;
o‘z xizmat mavqeidan faqat filial manfaatlarida foydalanishi;
filialning manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlar
to‘g‘risida **direktorni xabardor qilishi**;

nepotizm (tanish-bilishchilik), favoritizm, mahalliychilik, xomiylik va urug‘-aymoqchilikning namoyon bo‘lishiga
qatiy chek qo‘yishi;

potensial yoki haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi xaqidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq oshkor qilishi;
o‘zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq ro‘yxatini, o‘zining va ularning
nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki xaqidagi ma’lumotlarni halol, to‘liq va vijdonan oshkor qilishi shart.

Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida filial tizimining xodimlari quyidagi hollarda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga quyidagilar kiradi:
xodimning bo‘ysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) o‘zaro bog‘langan shaxslar bo‘lsa;
xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) o‘zaro bog‘langan shaxslarga nisbatan kadrlar masalasi bo‘yicha qarorlar
qabul qilishi (shu jumladan, ish xaqini hisoblash va to‘lash, mukofotga, ish xaqiga qo‘srimchalar va
rag‘batlantirishning boshqa turlariga tavsiya qilish va uning summasini belgilashi);
xodim o‘zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini grant mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan
ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirayotgan ilmiy jamoaga jalb etish to‘g‘risida (o‘zi yoki kollegial) shaxsiy
manfaatdorlik asosida noxolis tarzda qaror qabul qilishi;
grant mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida xodim filialning shtat
xodimi hisoblanishi;
xodim o‘zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini o‘qishini ko‘chirishi qayta tiklash borasida qaror
qabul qilishni amalga oshirilishi;
vaziyatdan kelib chiqib, boshqa holatlar xam manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi holat sifatida baholanishi
mumkin.



**E'tiboringiz uchun
raxmat!**